

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MURODXO‘JAYEVA KOMOLA BOTIRXO‘JA QIZI

**YANGI TARKIBLI MAXSUS KIYIMBOP TO‘QIMALARNI ISHLAB
CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Murodxo‘jayeva Komola Botirxo‘ja qizi

Yangi tarkibli maxsus kiyimbop to‘qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasini
takomillashtirish..... 3

Муродхожаева Комола Ботирхожа кизи

Совершенствование технологии производства специальных одежных
тканей с новым составом. 21

Murodkhojayeva Komola Botirkhoja qizi

Improvement of production technology of special clothing fabrics with new
composition..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 42

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MURODXO‘JAYEVA KOMOLA BOTIRXO‘JA QIZI

**YANGI TARKIBLI MAXSUS KIYIMBOP TO‘QIMALARNI ISHLAB
CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2025.1.PhD/T5206

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.titli.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:

Садикова Наима Рахматовна
кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Матисманлов Сайфулла Лалашбаевич
доктор технических наук, профессор

Дониёров Бектош Баходирович
доктор философии технических наук, доцент

Ведущая организация:

Наманганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится 22 мая 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc 03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности. (адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохджахон-5, административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-этаж, 222-аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: 253-36-17; e-mail: pochta@ttiyesi.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (регистрационный номер 239). Адрес: 100100, Ташкент, Шохджахон-5, тел.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан 6 мая 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 239 от 6 мая 2025 года).



Х.Х.Камиллова

Председатель Научного совета по присуждению
учёных степеней, д.т.н., профессор

А.З.Маматов

Учёный секретарь Научного совета по присуждению
учёных степеней, д.т.н., профессор

Ш.Ш.Хакимов

Председатель Научного семинара при научном совете
по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to'qimachilik sanoatida turli xildagi kiyim-kechak va buyumlarga bo'lgan talabning ortib borishi va ushbu talablarni amalga oshirishda yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida to'qimachilik bozorining hajmi 2023-yildan 2030-yilgacha yillik o'sish sur'ati (CAGR) 7,6% ga¹ o'sishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkich to'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda, nafaqat texnologik jarayonlarni to'g'ri tashkil etish, shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni loyihalash, sifat ko'rsatkichlarini bashoratlash va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Jahonda tayyor sifatli mahsulot ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini takomillashtirish, ularning ilmiy asoslarini yaratish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, to'qima sifati va raqobatbardoshligini oshiruvchi samarali texnologiyani yaratish, to'qima ko'rsatkichlarini optimallashtirish usullarini ishlab chiqish, to'qimachilik korxonalarida yuqori samarali texnik vositalar va texnologiyalarni yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, qurilish sohasidagi ishchilar kiyimiga mo'ljallangan ikkilamchi xomashyo tarkibli maxsus to'qima ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, paxta tolasi to'qimalarning iste'mol xossalarini yanada oshirishni ta'minlash masalalarini hal etish masalalari dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari sifatini va raqobatbardoshligini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasida "...milliy iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan sanoat siyosatini ro'yobga chiqarishni davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish va sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmini 2,4 marta o'sishi, yengil sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish..." bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. "Paxta tolasini chuqur qayta ishlash va tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dasturi..." ning maqsadlaridan biri bu "...yakuniy natijaga yo'naltirilgan xomashyoni chuqur, qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlarni ishonchli va kafolati takror ishlab chiqarish" hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, xomashyodan unumli foydalanib, yangi assortimentdagi to'qimalarni yaratish va ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 30-yanvardagi PQ-76-sonli "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilanagan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ <https://www.researchreportsworld.com>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi dasturi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz to‘qimachilik sanoati oldida turgan vazifalardan biri, mahalliy xomashyolardan foydalanilib, aralash tarkibli sifatli mahsulot ishlab chiqarishdan iborat. Adabiyot manbalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina ishlar to‘qimalarning tuzilishi, xossalari, ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Aralash tola tarkibli to‘qimalarni yaratish va ularning sifatini yaxshilash masalalari bo‘yicha A.A.Martinovalar, S.D.Nikolayev, E.A.Onikov, E.Sh.Olimboyev, S.A.Xamrayeva, A.D.Daminov, G‘.Valiyev, O.A.Axunbabayev, S.S.Raximxodjayevlar va boshqa bir qator ilmiy maktablar shug‘ullangan.

Y.B.Koblyakova, V.E.Romanov, P.P.Koketkin, S.Sh.Tashpulatov, X.X.Kamilova, F.U.Nigmatova kabi bir qator olimlar maxsus kiyimlarni konstruksiyalash va ishlab chiqarishni loyihalash borasida o‘z ilmiy ishlarini olib borganlar. Y.Y.Surjenko, L.X.Faritova harkat dinamikasini antropologik tadqiqotlar, A.Buzov, K.G.Gushina, S.A.Belyayeva, I.N.Savelyeva, V.G.Petrurinalar maxsus to‘qimalarni xususiyatlarini o‘rganishgan. Z.S.Chubarova maxsus to‘qimalarni sifatini, P.L.Kolesnikov, R.F.Afanaseva, R.A.Dell, Ye.X.Melikov, A.Bartona, O.Edxolm, L.A.Bekmurzayev, I.Yu.Brink, I.V.Churunova, R.O.Jilisbaeva, B.R.Riskulova, T.V.Denisova, T.E.Pasekova maxsus kiyimlarning issiqlik izolyatsiya xususiyatini o‘rganishgan.

Maxsus kiyimlarning fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha xorijda Kerry Atkins, Martin Thompson, Luo Zhongxuan, Li Fengzhi, Liu Yingxi, Li Yi shug‘ullanishgan. Maxsus to‘qima ishlab chiqarish sohasida ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlar olib borilgan bo‘lsada, ushbu izlanishlarga qadar ikkilamchi xomashyo tarkibli yangi assortimentdagi maxsus to‘qima olish, berilgan parametrlar asosida yuqori sifatli kiyimbop to‘qimalarni loyihalash jarayonlarini takomillashtirish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ilmiy tadqiqot ishi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №: 50/2024 “Yangi tarkibli maxsus kiyimbop to‘qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish orqali ikkilamchi xomashyo tarkibli maxsus kiyimbop to‘qimalarni ishlab chiqarish” mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ikkilamchi xomashyodan yangi kiyimbop maxsus to‘qimalarni olish texnologiyasini takomillashtirish va ularni to‘quv dastgohlarida hosil bo‘lish jarayonini muqobillashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- maxsus kiyimbop to‘qimalar va ularga ishlatiladigan xomashyoni tahlil qilish;
- ikkilamchi xomashyodan maxsus kiyimbop to‘qimani loyihalash;
- maxsus kiyimbop to‘qimalarning texnologik ko‘rsatkichlariga va fizik-mexanik xususiyatlariga xomashyo tarkibining ta’sirini aniqlash;

maxsus kiyimga mo'ljallangan to'qimani to'quv dastgohida shakllanish texnologik omillarini muqobillashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida quruvchilar kiyimi uchun ikkilamchi xomashyo tarkibli maxsus to'qima olingan

Tadqiqotning predmeti maxsus to'qimalar texnologik ko'rsatkichlari va ularning fizik-mexanik xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida to'qima tuzilishi va ularni loyihalashda nazariy mexanika va matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tanda iplarini ohorlash jarayoni o'rniga ilk marotaba emulsiyalashni kiritish asosida ikkilamchi xomashyodan maxsus kiyimbop to'qimalarni olish texnologiyasi takomillashtirilgan;

tanda va arqoq iplari orasidagi masofani kamayishini inobatga oluvchi koeffitsiyentlarni kiritish hisobiga berilgan sirt zichligi bo'yicha to'qimani loyihalash usuli taranglik kuchlari ta'sirini inobatga olgan holda takomillashtirilgan;

yaratilgan maxsus kiyimbop to'qimalarining texnologik ko'rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlarini kompleks baholash yordamida xomashyo tarkibining ta'sir darajasi aniqlangan;

ikkilamchi xomashyo tarkibli maxsus kiyimbop to'qimani to'quv dastgohida shakllanish texnologik omillarini yangi muqobil qiymatlari qurilgan regression modellar asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli xil xomashyolardan foydalanib, yangi maxsus to'qimalar assortimenti ishlab chiqarilgan va uning fizik-mexanik ko'rsatkichlari tahlil qilingan;

yangi tarkibli maxsus kiyimbop to'qimalar berilgan sirt zichligi bo'yicha loyihalangan;

ishlab chiqarish sharoitida olingan turli tarkibdagi maxsus to'qima namunalarining sifat ko'rsatkichlari kompleks baholangan;

quruvchilar uchun ikkilamchi xomashyo tarkibli maxsus to'qimalarning yangi assortimentlari ishlab chiqilgan va sanoat namunalariga patentlar olingan (SAP № 2615, SAP № 2616, SAP № 2617).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada keltirilgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar, nazariy hamda eksperimental tadqiqot natijalarining bir-biriga mos kelishi, aprobatsiya va joriy qilinishidagi ijobiy natijalarni solishtirish, baholashga, ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, turli tolaviy tarkibli va turli chiziqli zichlikdagi yangi maxsus matolar olinganligi, shuningdek, to'qimaning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar ta'sirini nazariy tahlil qilish bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarini asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishning ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirilganligi, olingan natijalarning amaliyotdagi natijalar bilan mutanosibli, tajribaviy tadqiqot natijalariga binoan yangi tarkibli maxsus matolar

yaratilishi, maxsus matolar ishlab chiqarish unumdorligini oshirishni ta'minlashi va iqtisodiy samaradorligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi tarkibli maxsus to'qimani yaratish va uni to'quv dastgohida hosil bo'lish jarayonini muqobillash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

yangi maxsus to'qimlarni ishlab chiqarishning muqobil texnologik parametrlari "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi "SHAMS" XK va "MITTI" XK ishlab chiqarish korxonalarida tadbiq etildi ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 10-yanvar № 03/25-69 son ma'lumotnomasi). Natijada to'qimaning ishqalanishga chidamliligi 17,4 %, arqoq bo'yicha uzilish kuchi 26,5%, tanda bo'yicha uzilish kuchi 8,7% oshishiga erishildi. Kiyimbop maxsus matolar assortimentini kengaytirish va yangi assortimentdagi to'qima matolarini ishlab chiqarish uchun ikkilamchi xomashyodan foydalanish hisobiga ishlab chiqarilayotgan quruvchilar uchun maxsus kiyimbop to'qimalar tannarxini 58,5% ga pasaytirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 15 ta ilmiy-texnik konferensiyalarda, shu jumladan 10 ta xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ishlar chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola nashr etilgan, shundan 6 ta maqola xorijiy jurnallarda va Scopus bazasidagi jurnallarda 1 ta maqola chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentli tomonidan 3ta sanoat namunasiga patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurat asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti hamda predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi va maxsus to'qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasi tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida maxsus to'qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasi va to'qimalarni tuzilishi va loyihalashga oid adabiyotlar tahlili keltirilgan. Tabiiy va kimyoviy tolalar aralashmali maxsus to'qimalar assortimenti, qo'llanilishi va xossalari o'rganilgan. Jahon va O'zbekiston bozorida maxsus to'qimalarni statistik tahlili keltirilgan. Ikkilamchi xomashyodan yangi tarkibli maxsus to'qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasini

takomillashtirish iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Yangi tuzilishli maxsus to‘qimani loyihalash va uning texnologik ko‘rsatkichlarini tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida maxsus to‘qimani ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan xomashyo tahlil qilingan, berilgan sirt zichligi bo‘yicha yangi tarkibli to‘qimalar takomillashgan usulda loyihalangan. Loyihalangan to‘qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashtirilgan, to‘qimalarning tajriba namunalari ishlab chiqarilgan va ularni sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

To‘qimalarning tannarxini pasaytirish hozirda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ikkilamchi tolalardan yigirilgan ipdan foydalangan holda hamyonbop yangi turdagi to‘qimalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi masala ko‘tarildi.

Tanda iplari sifatida 70% qayta tiklangan paxta tolasi va 30% poliester shtapel tolasidan tashkil topgan aralash tarkibli iplarni qabul qilgan holda, berilgan sirt zichligi 350 g/sm² va 400 g/sm² bo‘lgan yangi to‘qimalar loyihalangan. Loyihalangan yangi to‘qimalarni ishlab chiqarish uchun quyidagi texnologik jarayonlar ketma-ketligi qo‘llanilgan (1-rasm).



1-rasm. Tavsiya etilayotgan ikkilamchi xomashyo tarkibli maxsus kiyimbop to‘qimani ishlab chiqarish texnologik jarayon ketma-ketligi

Ishlab chiqilgan yangi texnologik jarayon ketma-ketligi mavud texnologiyalardan farqli jihatlari quyidagilardan iborat:

- tanda iplarini tayyorlash jarayonida iplarni ohorlash jarayoniing bekor qilinishi ishlab chiqarish harajatlarini sezilarli darajada qisqartirishga, ekologik yuklamani minimallashtirishga va iplarning tabiiy elastikligini saqlab qolishga imkon beradi;

- tanda iplarini tayyorlash jarayonida emulsiyali tandalash texnologiyasining qo'llanilishi ipning sifatini sezilarli darajada oshiradi va tanda iplarni uzilishlar sonini kamaytiradi;

- arqoq iplarini namlash jarayoni to'quv jarayonida uzilishlar sonini kamaytirish hisobiga samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Olingan namunalarni tahlil qilish jarayonida ularning amaldagi sirt zichligi hisobiy qiymatdan ortiqcligi, ya'ni mos ravishda 362,3 va 414,5 g/ sm² ni tashkil etishi aniqlandi. Mazkur farq to'qima loyihalash jarayonida iplarning statik holati hisobga olingaligi bilan izohlanadi. Amalda tanda va arqoq iplari orasidagi kuchlanishlar ta'sirida iplar orasidagi masofa qisqaradi, natijada to'qimaning tanda va arqoq bo'yicha zichliklari oshadi. Olingan to'qima namunalarini tahlili shunu ko'rsatadiki, iplarning amaldagi zichligi tanda bo'yicha 5% ga, arqoq bo'yicha esa 4% oshgan. Natijada to'qimaning amaldagi sirt zichligi hisobiya nisbatan ortgan. Bu holat xomashyoni ortiqcha sarf bo'lishiga olib keladi. Mazkur holatni bartaraf etish maqsadida to'qimani loyihalash jarayonida iplar orasidagi masofani amalda kamayishini inobatga olish kerak. Buning uchun tanda va arqoq iplari orasidagi maksimal masofani hisoblash formulasiga amalda masofani kamayishini inobatga oluvchi koeffitsiyentlar kiritildi:

$$l_t = K_t \sqrt{(d_{th} + d_{av})^2 - h_t^2} \quad (1)$$

$$l_a = K_a \sqrt{(d_{ah} + d_{tv})^2 - h_a^2} \quad (2)$$

Bu yerda: K_t , K_a taranglik kuchlari ta'sirida tanda va arqoq iplari orasidagi masofa qisqarisini hisobga oluvchi koeffitsiyentlar; d_{th}, d_{ah} - tanda va arqoq iplarining gorizonta diametri; d_{tv}, d_{av} - tanda va arqoq iplarining vertika diametri; h_t, h_a - tanda va arqoq iplarining egilish to'lqinining balandligi; l_t, l_a - tanda va arqoq iplari orasidagi maksimal masofa.

Ushbu koeffitsiyentlarni inobatga olgan xolda to'qima variantlari loyihalandi va tajriba namunalari ishlab chiqarildi. Loyihalashda xom ashyo sifatida tanda ipi uchun chiziqli zichligi 50x2 teks bo'lgan aralash tarkibli qayta tiklangan toladan yigirilgan ip(70% paxta va 30%poliester), arqoq ipi uchun esa chiziqli zichligi 20x3 teks bo'lgan 50/50% paxta+viskoza tolali ip (1,5 variantlar), 50/50% paxta+poliyester tolali ip (2,6 variantlar), 50/50% paxta+modal tolali iplar (3,7 variantlar), 100% poliester tolali ip (4,8 variantlar) qabul qilindi va to'qima variantlarining tajriba namunalari ishlab chiqarildi. Olingan to'qima variantlarining ko'rsatkichlari 1-jadvalda, nazariy va amaliy zichliklari 2-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

To'qima namunalarning texnologik ko'rsatkichlari

Namuna	Koʻrsatkichlar nomi							Toʻqima oʻrilishi
	Toʻqima tarkibi		10 sm dagi iplar soni		Chiziqli zichligi		Yuza zichligi, gr/m ²	
	tanda	arqoq	P _t	P _a	T _t	T _a		
1	Aralash tarkibli qayta tiklangan toladan yigirilgan ip(70% paxta tolasi va 30%poliester shtapel tolasi)	Aralash tarkibli ip (50% paxta va 50% viskoza)	250	90	50x2	30x3	400	tanda repsi
2	Aralash tarkibli qayta tiklangan toladan yigirilgan ip(70% paxta tolasi va 30%poliester shtapel tolasi)	Aralash tarkibli ip (50% paxta va 50%poliester)	250	90	50x2	30x3	400	tanda repsi
3	Aralash tarkibli qayta tiklangan toladan yigirilgan ip(70% paxta tolasi va 30%poliester shtapel tolasi)	Aralash tarkibli ip (50% paxta va 50% modal)	250	90	50x2	30x3	400	tanda repsi
4	Aralash tarkibli qayta tiklangan toladan yigirilgan ip(70% paxta tolasi va 30%poliester shtapel tolasi)	100% poliester	250	80	50x2	100	400	tanda repsi
5	Aralash tarkibli qayta tiklangan toladan yigirilgan ip(70% paxta tolasi va 30%poliester shtapel tolasi)	Aralash tarkibli ip (50% paxta va 50% viskoza)	220	110	50x2	30x3	350	tanda repsi
6	Aralash tarkibli qayta tiklangan toladan yigirilgan ip(70% paxta tolasi va 30%poliester shtapel tolasi)	Aralash tarkibli ip (50% paxta va 50%poliester)	220	110	50x2	30x3	350	tanda repsi
7	Aralash tarkibli qayta tiklangan toladan yigirilgan ip(70% paxta tolasi va 30%poliester shtapel tolasi)	Aralash tarkibli ip (50% paxta va 50% modal)	220	110	50x2	30x3	350	tanda repsi
8	Aralash tarkibli qayta tiklangan toladan yigirilgan ip(70% paxta tolasi va 30%poliester shtapel tolasi)	100% poliester	220	110	50x2	100	350	tanda repsi
9	Aralash tarkibli qayta tiklangan toladan yigirilgan ip(70% paxta tolasi va 30%poliester shtapel tolasi)	Aralash tarkibli ip (50% paxta va 50%poliester tolasi)	220	220	25x2	30	220	murakkab sarja

2-jadval

To'qima namunalarning nazariy va amaliy yuza zichligi

	1	2	3	4	5	6	7	8	9
Nazariy	400	400	400	400	350	350	350	350	220
Amaliy	404,24	403.2	402,5	403,8	351,8	350,6	353,9	353,8	224,1

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki takomillashgan usulda loyihalangan to‘qimalarning amaldagi sirt zichligi hisobiy qiymatdan faqat 0,5 – 1,2 % ga farq qiladi.


Olingan maxsus to‘qima namunalarining fizik-mexanik xususiyatlari o‘rganildi. Shu bilan birga, loyihalangan tajriba namunalarining xomashyo sifatida kimyoviy kompleks iplardan foydalanilganligi uchun ularning ahamiyatli xossalari sonli qiymatlari kimyoviy tolali maxsus to‘qimalar uchun mo‘ljallangan GOST 11209-2014 xalqaro standartida belgilangan meyorlari bilan solishtirildi (3-jadval).

3-jadval

GOST 11209-2014 bo‘yicha kimyoviy tolali maxsus to‘qimalarning ko‘rsatkichlari me‘yorlari


Ko‘rsatkichlar	Ishqalanishga chidamlilik, sikl	Kirishish, %		Uzilish kuchi, N		Yirtilishdagi kuch, N		Havo o‘tkazuvchanlik $\text{sm}^3 / \text{sm}^2 \cdot \text{s}$
To‘qimaning yuza zichligi		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq	
180-220 gr/m^2	3500	$\leq -2,0$	$\leq -1,5$	>700	>400	30	30	>20
220 gr/m^2 dan yuqori	>4500	$\leq -3,0$	$\leq -2,0$	>900	>700	35	35	>20

Tajriba namunalarining ishqalanishga chidamliligi ko‘rsatkichlari gistogrammalari 2-rasmda keltirilgan. Gistogrammadan ko‘rinib turibdiki barcha namunalarining ishqalanishga chidamliligi standart talablariga javob beradi.




2-rasm. Namunalarining ishqalanishga chidamlilik gistogrammasi, sikl

Tajriba namunalarining yuvilgandan so‘ng qisqarish gistogrammalari 3-rasmda keltirilgan. Gistogrammadan ko‘rinib turibdiki yuvilgandan so‘ng qisqarish miqdori bo‘yicha standart talablariga 6- va 9-namunalar javob beradi.




3-rasm. Namunalarning yuvlgandan so'ng kirishish xususiyati gistogrammasi, %

4-rasmda tajriba namunalari tanga va arqoq bo'yicha uzilish kuchi gistogrammalari keltirilgan. Gistogrammada ko'rinib turibdiki uzilish kuchi ko'rsatkichi bo'yicha 5,6,8 va 9 namunalar standart talablariga javob beradi.




4-rasm. Namunalarning uzilish kuchi gistogrammasi, N.

Tajriba namunalari yirtilish kuchi gistogrammasi 5-rasmda keltirilgan. Undan barcha namunalari yirtilish kuchi standart talablariga javob beradi.



5-rasm. Namunalarning yirtilish kuchi gistogrammasi, N


6-rasmda olingan namunalari havo o'tkazuvchanligi gistogrammasi keltirilgan. Gistogrammada ko'rinib turibdiki 1- va 3- namunalar standart talablariga javob bermaydi. Qolgan namunalari havo o'tkazuvchanligi standart talablariga javob beradi.




6-rasm. Namunalarning havo o'tkazuvchanlik xususiyati gistogrammasi, $sm^3/sm^2 \cdot s$

Tajriba namunalarining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil asosida GOST 11209-2014 talablariga 6- va 9-namunalar namunalar javob berishi aniqlandi.

Tarkibi va yuza zichligi turlicha bo'lgan maxsus to'qimalarining eng yaxshi namunasini aniqlash uchun qurilgan kompleks baholash diagrammasi 7-rasmda va qiymatlarni qiyosiy taqqoslash gistogrammasi 8-rasmda keltirilgan. Maxsus to'qimalarning sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy gistogrammasi shuni ko'rsatmoqdaki, namunalar ichida 6 va 9-variant eng yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi. Sirt zichligi o'rtacha bo'lgan 6-namunani qurilish sohasidagi maxsus kuz-qish mavsumidagi kiyimlar uchun, sirt zichligi past bo'lgan 9-namunani esa qurilish sohasidagi yoz mavsumi maxsus kiyimlari uchun tavsiya qilish mumkin.



7-rasm. Namunalarning sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasi



8-rasm. Namunalarning sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy gistogrammasi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“To'quv dastgohlarida maxsus to'qimalar ishlab chiqarishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, to'qimaning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar nazariy tahlili o'tkazilgan. Tanda va arqoq iplarini bir-biriga ta'siridagi hisobi amalga oshirilgan. Maxsus to'qimani to'quv dastgohlarida


hosil bolishining muqobil omillari aniqlangan va to'qimani ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi aniqlangan

To'qimani shakllanishida qanday taranglik kuchlari ta'sirida to'qimadagi ip muvozanatda bo'lishini tahlil qilindi (9-rasm). Arqoq ipda hosil bo'ladigan taranglik kuchlarini aniqlandi.

$$T_1 = \frac{N_1 [f \sin(\alpha_1 + \alpha_2) - \cos(\alpha_1 + \alpha_2)] - N_2}{\sin(\alpha_1 + \alpha_2)} \quad (3)$$


$$T_2 = \frac{-N_1 + N_2 [f \sin(\alpha_1 + \alpha_2) - \cos(\alpha_1 + \alpha_2)]}{\sin(\alpha_1 + \alpha_2)} \quad (4)$$

(3) va (4) ifodalar ip arqoqning ikki tanda ipiga ta'siri natijasida yuzaga keladigan taranglik kuchlarini ifodalaydi. Formulalardan ko'rinib turibdiki, arqoq ipining tortish kuchi tanda iplarining normal bosimi, tanda va arqoq iplarining o'zaro ishqalanish ko'effitsienti hamda arqoq ipining tanda ipiga ta'siri natijasidagi og'ish burchaklariga bog'liq.




9-rasm. Tavsiya qilinayotgan arqoq va tanda iplarining o'zaro ta'sir sxemasi

Arqoq ipining ikkita tanda ipiga ta'siri natijasidagi taranglik kuchlarini tanda iplariga beradigan N_1 va N_2 bosim kuchiga, f ishqalanish ko'effitsiyentiga, α_1 va α_2 arqoq ipining tanda ipiga ta'siri natijasidagi og'ish burchaklariga bog'liqlik ifodasini Maple dasturi orqali grafiklarda tahlili keltirilgan (10-11-rasm).



10-rasm. Ipning taranglik kuchini arqoq ipining tanda ipiga ta'siri natijasidagi og'ish burchaklarini turli xil $\alpha_{1,I} = 15^\circ$, $\alpha_{1,II} = 20^\circ$, $\alpha_{1,III} = 25^\circ$ qiymatlarida qamrash burchagiga bog'liqlik grafigi




11-rasm. Ipning taranglik kuchini arqoq ipining tanda ipiga ta'siri natijasidagi og'ish burchaklarini turli xil $\alpha_{2,I} = 15^\circ$, $\alpha_{2,II} = 20^\circ$, $\alpha_{2,III} = 25^\circ$ qiymatlarida qamrash burchagiga bog'liqlik grafigi

Arqoq va tanda iplarining nisbiy deformatsiyasi, iplar orasidagi ishqalanish kuchini va taranglik kuchini aniqlandi.

$$\varepsilon_1 = \frac{[\cos(\alpha_1 + \alpha_2) - f \sin(\alpha_1 - \alpha_2)] N_1 - \cos 2\alpha_2 N_2}{E A \sin(\alpha_1 - \alpha_2)} \quad (5)$$

$$\varepsilon_2 = \frac{[f \sin(\alpha_1 - \alpha_2) - \cos(\alpha_1 + \alpha_2)] N_2 + \cos 2\alpha_1 N_1}{E A \sin(\alpha_1 - \alpha_2)} \quad (6)$$

Formuladan ko'rinib turibdiki, taranglik kuchlarining miqdorini belgilovchi asosiy faktor boshqa kuchlardan tashqari, arqoq iplarining zichligi hisoblanadi. Shuning uchun arqoq ipini zichligi shunday optimal bo'lishi kerakki tandaning to'qimani ekspluatatsiya davrida, to'qimani ikki tomoniga ham siljib chiqib ketish ehtimoli bo'lmasligi lozim.




(arqoq ipining tanda ipiga ta'siri natijasidagi og'ish burchagi bo'lganda)


12-rasm. Ipning taranglik kuchini arqoq ipining tanda ipiga bosim kuchini turli xil $N_{1,I} = 110 \text{ sN}$, $N_{1,II} = 120 \text{ sN}$, $N_{1,III} = 130 \text{ sN}$ qiymatlarida qamrash burchagiga bog'liqlik grafigi

Tanda iplarining taranglik kuchi va uning massasidan, arqoq iplarining $\alpha_{1,I} = 15^\circ$ tanda iplariga siquvchi kuchi va ishqalanish koeffitsiyenti katta bo'lishi shart.

Shu shart bajarilganda to'qimani sirtida koeffitsiyenti bir xil chiqib uning sifati yaxshilanadi.



13-rasm. Ipning nisbiy cho'zilishini tanda ipiga ta'siri natijasidagi og'ish burchaklarini turli xil $\alpha_{1,I} = 15^\circ$, $\alpha_{1,II} = 20^\circ$, $\alpha_{1,III} = 25^\circ$ qiymatlarida qamrash burchagiga bog'liqlik grafigi



14-rasm. Ipning cho'zilishdagi kuchlanishini ipning zichliklarini turli xil $\rho_1 = 0.3$, $\rho_2 = 0.5$, $\rho_3 = 0.7$ qiymatlaridagi nisbiy cho'zilishiga bog'liqlik grafigi

Arqoq ipning nisbiy deformatsiyasini arqoq ipining tanda ipiga ta'siri natijasidagi og'ish burchagiga, ipning elastiklik moduliga, ipning ko'ndalang kesimi yuzasiga va normal bosim kuchiga bog'liqlik grafiklarini Maple dasturidan foydalanib tahlillari keltirilgan (13-14-rasm).

To'quv dastgoxining maksimal ish unumdorligiga erishish maqsadida to'quv dastgohida quruvchilar uchun maxsus kiyimbop to'qima hosil qilish jarayonini muqobillashtirilgan. Tadqiqot obyektni dastlabki o'rganish to'quv jarayonini muqobillashtirishdan maqsad to'quvchilik dastgoxini maksimal ish unumdorligiga erishishdan iborat ekanligini ko'rsatdi. To'quv jarayonida belgilangan maqsadga erishishda ko'p jihatdan iplarni uzilishini kamaytirish (dastgohning o'zgarmas doimiy tezligida) yordam beradi. Bu to'quv jarayonini muqobillashtirishda tanda iplarni uzilishini minimallashtirishni asosiy me'zon sifatida tanlashga imkon beradi. Bir tarafdin bu orqali to'quvchi va dastgoxning ish unumdorligiga katta ta'sir ko'rsatuvchi, to'quvchining bandligi, dastgohni unumli ishlatish koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi. Shunday qilib, qabul qilingan optimallashtirish me'zoni tadqiqot obyektning samaradorligini to'liqqonli xarakterlash imkonini beradi.

Uchta asosiy o'zgaruvchan mustaqil omillar tanlandi: x_1 - tanda ipining taxtlash tarangligi sN; x_2 - homuza o'rta holati qiymati, mm; x_3 - skalaning grudnisiga nisbatan balandlik bo'yicha xolati, mm. To'quv dastgohini taxtlashda texnologik ko'rsatkichlarini aniqlashda 3 ta bosqich, omil va intervalni tanlash bilan aniqlandi (4-jadval). Chiquvchi parametrlarning tajribaviy natijalari va dispersiyalari 5-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Tajribani rejalashtirish sharti

№	Omilning nomi, belgisi	Kodlashtirilgan belgisi	Faktorning haqiqiy qiymatlari			O'zgarish oralig'i
			-1	0	+1	
1	Tandaning taxlash tarangligi, sN	x_1	24	30	36	6
2	Homuza o'rta holat miqdori, mm	x_2	15	20	25	5
3	Skaloning grudnisaga nisbatan xolati, mm	x_3	-15	0	15	15

5-jadval


Rejalashtirish matritsasi, tajriba va hisobiy natijalar

y	Omillar						$\bar{y}_u$	S_u^2
	x_1	x_2	x_3	y_{u1}	y_{u2}	y_{u3}		
1	-	-	-	0.23	0.25	0.26	0.25	0.00017
2	+	-	-	0.20	0.18	0.19	0.19	0.0001
3	-	+	-	0.26	0.23	0.25	0.25	0.0002
4	+	+	-	0.31	0.33	0.35	0.33	0.0003
5	-	-	+	0.39	0.35	0.34	0.36	0.0005
6	+	-	+	0.45	0.42	0.40	0.42	0.00043
7	-	+	+	0.26	0.23	0.25	0.25	0.0002
8	+	+	+	0.45	0.43	0.51	0.48	0.0014

Tanlangan parametrlardan tanda iplarining uzilishga bog'liqligi bo'yicha matematik modeli olindi:


$$y_R = 0.30 + 0.03 x_1 + 0.02 x_2 + 0.07 x_3 + 0.04 x_1 x_2 + 0.03 x_1 x_3 \quad (7)$$

Olingan matematik modelning regressiya koeffisientlari ahamiyati Student mezonini, modelning adekvatligi Fisher mezonini orqali baholandi. Jarayonning muqobil omillarini aniqlash maqsadida matematik model asosida X -ning turli qiymatlari uchun tenglamaning yuza kesimlari qurildi.




$$x_2 := -1, -0.9..1 \quad x_3 := -1, -0.9..1 \quad x_1 := 0$$

a) to'quv dastgohidagi o'rta holat miqdori (x_2) va skaloning grudnitsaga nisbatan holati miqdori (x_3)ga bog'liqlik izochiziqlari



$$x_1 := -1, -0,9..1 \quad x_3 := -1, -0,9..1 \quad x_2 := -1$$

b) to'quv dastgohida tanda ipi tarangligining (x_1) skaloning grudnitsaga nisbatan holati miqdori (x_3) ga bog'liqlik izochizirlari



$$x_1 := -1, -0,9..1 \quad x_2 := -1, -0,9..1 \quad x_3 := -1$$

v) to'quv dastgohida tanda ipi tarangligining (x_1) o'rta holat miqdori (x_2) ga bog'liqlik izochizirlari

15-rasm. Muqobillash sirtining yuza kesimlari

Yuza kesimlarini tahlil qilish natijasida quyidagilar aniqlandi:

a) taxtlash tarangligining shartli qiymati $x_1=0$ bo'lganda iplarning minimal uzilish miqdori o'rta holat shartli qiymati $x_2 = -1$ 0 va skaloning grudnisaga nisbatan balandligi $x_3 = -1$ (-0,7)da kuzatiladi;

b) o'rta holat shartli qiymati $x_2=-1$ bo'lganda iplarning minimal uzilish miqdori taxtlash tarangligining shartli qiymati $x_1 = 0,5$ 1 va skaloning grudnisaga nisbatan balandligi $x_3 = -1$ (-0,8)da kuzatiladi;

v) skaloning grudnisaga nisbatan balandligi qiymati $x_3 = -1$ bo'lganda iplarning minimal uzilish miqdori taxtlash tarangligi $x_1 = -0,6$ (-1) va o'rta holati qiymati $x_2 = -1$ (-0,8) da kuzatiladi.

Yuza kesimlari tahlili asosida maxsus to'qimani to'quv dastgohida ishlab chiqarishning muqobil taxtlash omillari aniqlandi:

tanda ipining tarangligi -36sN (bitta ipga);

o'rta holat miqdori- 15mm;

skaloning grudnisaga nisbatan balandligi – minus 15 mm.

Mazkur omillar to'quv dastgohida o'rnatilganda tanda iplarining uzilish miqdori 0,183 uz/metрни tashkil etadi.

Taqdim etilayotgan mazkur maxsus to'qimalarni ishlab chiqarishga tadbqiq etish orqali korxona rentabelligini oshishiga hamda mahsulotlarni raqobatbardosh bo'lishiga erishiladi. Yangi maxsus to'qimani ishlab chiqarishga tadbqiq etish natijasida 1000 m to'qimani ishlab chiqarishda ikkilamchi xomashyodan foydalanish hisobiga kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 3 192 920 so'mni tashkil etadi.

XULOSA

1. Adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, ishchi kiyimining o'ziga xos ish sharoitlaridan kelib chiqadigan talablariga muvofiq to'qimachilik matolarini ishlab chiqarish bo'yicha tadqiqot ishlari yetarli olib borilmaganligi aniqlandi. Maxsus to'qimalarning to'qima shakllanishiga ta'sir etuvchi kuchlar ilmiy jihatdan batafsil o'rganilmagan. Qurilish sohasi ishchilarining ishchi kiyimlari uchun mo'ljallangan to'qimalarni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan xomashyo turlari tahlil qilindi. O'zbekistonda mavjud ikkilamchi xomashyodan foydalangan holda yangi tarkibli maxsus to'qima tavsiya etildi. Ushbu ilmiy ishlanma ikkilamchi xomashyodan foydalanish hisobiga xarajatlarni 50-60 foizga kamaytirish imkonini beradi va mamlakat eksport salohiyatini oshirishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda qurilish industriyasini rivojlantirish davrida ishchilar uchun arzon maxsus matolar ishlab chiqarish dolzarb mavzu hisoblanadi.

2. Tanda va arqoq iplarining o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda berilgan sirt zichligi bo'yicha to'qima loyihalash usuli takomillashtirildi

3. Takomillashgan usulda maxsus to'qimaning variantlari loyihalandi va tajriba namunalari ishlab chiqarildi.

4. Tajribaviy namunalarning uzish kuchi, yirtilishdagi kuch, uzilishdagi uzayish, ishqalanishga chidamliligi, havo o'tkazuvchanligi, namlab ishlov berilganda o'lchamlarning o'zgarishi (kirishish) kabi xossalari tadqiq qilinib, maxsus kiyimlar uchun tavsiya qilindi. Standart talablariga javob berishi aniqlandi. Maxsus to'qimalarning sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy gistogrammasi shuni ko'rsatmoqdaki, namunalar ichida 6 va 9-variant eng yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi.

5. Ishlab chiqilgan yuqori sirt zichlikka ega tajriba namunalari (400 gr/m^2) texnik gazlamalar uchun va shopper sumkalar, o'rta zichlikdagi (350 gr/m^2) namunlar qishgi mavsum uchun qurilish sohasidagi maxsus kiyimlar uchun tavsiya qilindi. Kichik zichlikdagi (220 gr/m^2) namunlar yozgi mavsum uchun qurilish sohasidagi maxsus kiyimlar uchun tavsiya qilindi.

6. To'qimaning hosil bo'lishi jarayonida ipning tarangligini nazariy tadqiqotlar o'tkazildi. To'qimani shakllanishida taranglik va normal bosim kuchlari ta'sirida to'qimadagi tanda va arqoq ip muvozanatda bo'lishini tahlil qilindi. Arqoq iplar tarangligining tanda iplarining normal bosimiga bog'liqlik qonuniyatlari, tanda va arqoq iplari orasidagi ishqalanish koeffitsienti va o'zaro qamrash burchaklari olindi. Arqoq iplarining nisbiy deformatsiyasi qiymatlari aniqlandi. Arqoq iplarining nisbiy deformatsiyasi tanda iplardan normal bosim kuchlariga, arqoq iplarini qamrash burchaklariga, tanda iplar orasidagi ishqalanish koeffitsiyentiga va ipning elastik moduliga bog'liq ekanligi aniqlandi.

7. To'quv dastgohida maxsus to'qima hosil qilish jarayonining muqobil ko'rsatkichlari aniqlandi. Tanda iplarining tarangligi bir tanda ipi uchun $x_1=36 \text{ sN}$, homuza o'rta holat miqdori $x_2=15 \text{ mm}$; grudnisadan pastdagi skalo $x_3= -15 \text{ mm}$. dan iborat bo'lganda 1 metr to'qima to'qilganda tanda iplarinig uzilishlar soni 0,183 ni tashkil etdi.

8. Yangi maxsus to'qimani ishlab chiqarishga tadbiq etish natijasida 1000 m to'qimani ishlab chiqarishda ikkilamchi xomashyodan foydalanish hisobiga kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 3 192 920 so'mni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

МУРОДХОЖАЕВА КОМОЛА БОТИРХУЖА КИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДСТВА
СПЕЦИАЛЬНЫХ ОДЁЖНЫХ ТКАНЕЙ С НОВЫМ СЫРЬЕВЫМ
СОСТАВОМ**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная
обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/T5206 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttyisi.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz/ru) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sadikova Naima Rahmatovna
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Matismailov Sayfulla Lalashbayevich,
texnika fanlari doktori, professor

Doniyorov Bektosh Bahodirovich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 22-may kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi 5-uy, Tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: pochta@ttyisi.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (239-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi 5-uy, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil - may kuni tarqatildi
(2025 yil 6-maydagi 239-raqamli reysr bayonnomasi).



X.X. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в настоящее время наблюдается растущий спрос на различные виды продукции текстильной и лёгкой промышленности. По данным Всемирной торговой организации размер мирового текстильного рынка будет расти со среднегодовыми темпами роста (CAGR) на уровне 7,6% в период с 2023 по 2030 год. Это требует не только правильной организации технологических процессов при производстве продукции текстильной промышленности, но и требует расширения ассортимента выпускаемой продукции и улучшения показателей её качества.

Во всем мире проводятся комплексные научно-исследовательские работы по совершенствованию техники и технологии производства готовой качественной продукции, созданию её научных основ. В этом направлении большое внимание уделяется, в том числе, созданию эффективных технологий, повышающих качество и конкурентоспособность текстиля, разработке методов оптимизации эксплуатационных характеристик текстиля, созданию высокоэффективных технических средств и технологий в текстильной промышленности. При этом актуальными задачами считаются совершенствование технологий производства специальных текстильных материалов с использованием вторичного сырья для рабочей одежды в строительной отрасли, а также повышение потребительских свойств хлопчатобумажных тканей.

В Республике осуществляются комплексные меры по повышению качества и конкурентоспособности текстильной и лёгкой промышленности с применением инновационных технологий, и достигнуты определённые результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, предусмотрены важные задачи по “продолжению реализации промышленной политики, направленной на обеспечение устойчивости национальной экономики, увеличению доли промышленности в валовом внутреннем продукте и росту объёма производства промышленной продукции в 2,4 раза, увеличению объёма производства продукции лёгкой промышленности...”. Одной из целей “Программы глубокой переработки хлопкового волокна и производства готовых текстильных изделий...” является “...надёжная и гарантированная воспроизводимость готовой продукции за счёт глубокой переработки сырья, ориентированной на конечный результат”. В выполнении этих задач, в частности, важное значение имеет создание и производство текстильной продукции нового ассортимента с эффективным использованием сырья.

Данное диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 30 января 2021 года № ПП-76 «О мерах по организации деятельности государственных органов в сфере охраны окружающей среды и

экологического контроля», а также в соответствующих нормативных документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная научно-исследовательская работа выполнена в соответствии с программой развития науки и техники Республики Узбекистан II. «Энергетика, энерго- и ресурсосберегающие технологии».

Степень изученности проблемы. Одной из важных задач, стоящих перед текстильной промышленностью нашей Республики, является рациональное использование местного сырья для получения нового ассортимента тканей. Анализ литературных источников показывает, что многие работы ориентированы на изучение структуры, свойств и технологии производства тканей. Проблемой разработки нового ассортимента одежных тканей занимались такие ученые, как А.А.Мартынова, С.Д.Николаев, Е.А.Оников, Э.Ш.Олимбоев, С.А.Хамраева, А.Д.Даминов, П.С.Валиев, О.А.Ахунбабаев, С.С.Рахимходжаев и многие другие.

